Paxta-to'qimachilik sanoati bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng raqobatbardosh va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlaridan biri bo'lib, ko'plab davlatlar uning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun klasterlashuv va investitsion faollikni oshirish strategiyalarini qo'llamoqda. Xususan, Xitoy, Braziliya, Turkiya, AQSh, Pokiston va Hindiston singari yirik ishlab chiqaruvchi mamlakatlar innovatsion texnologiyalarni joriy etish, vertikal integratsiya va eksport salohiyatini kengaytirish orqali sezilarli yutuqlarga erishgan. Shu bilan birga, Misrning premium paxta brendi, Eronning import o'rnini bosish siyosati, Bangladeshning eksportga yo'naltirilgan tayyor kiyim sanoati hamda Qozog'istonning infratuzilma qo'lloviga asoslangan klaster modeli investitsiyalarni jalb qilishda o'ziga xos mexanizmlarni namoyon etadi. Mazkur davlatlar tajribasi O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarining investitsion jozibadorligini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport bozorlariga chuqur integratsiyalashuv uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

2017–2024-yillarda O'zbekiston to'qimachilik va kiyim-kechak eksporti 2,5 barobarga oshib, 1,1 mlrd dollardan 3 mlrd dollarga yetdi. Shu bilan birga, eksport tarkibida ham o'zgarish kuzatilib, xomashyo yo'nalishidan qayta ishlangan va tayyor mahsulot yetkazib berishga e'tibor qaratildi. Masalan, 2017-yilda soha eksportida ip ulushi taxminan 60 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 40 %ga tushdi, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushi esa 42 %ga yetdi.

2017–2024-yillarda davlat mahalliy to'qimachilik mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishni qo'llab-quvvatlash va ilgari surish bo'yicha faol choralar ko'rdi. Jumladan, eksportchilarning ko'rgazmalarda va yarmarkalarda ishtirok etishi, brendlarni targ'ib qilish, ombor va savdo maydonlarini ijaraga olish xarajatlarini qoplash mexanizmlari joriy etildi.

Natijada, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish doirasida O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari yetkazib beriladigan tashqi bozorlar soni 65 tadan 74 tagacha kengaydi.

Shuningdek, xorijga yetkazib beriladigan mahsulot nomenklaturasi ham kengaydi: 2024-yilda to'qimachilik va kiyim-kechakning 119 ta tovar turi eksport qilingan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 92 ta nomdan iborat edi. Bu esa mahalliy to'qimachilik sanoati faqat avvaldan ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini oshirish bilan cheklanmasdan, balki tovar turlarini kengaytirib, yangi mahsulot turlarini o'zlashtirganini ham ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzuga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan va ushbu olimlarning ilmiy izlanishlari hamda tahliliy natijalariga asoslanib mamlakatimiz paxta sanoatiga ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini tatbiq etishimiz mumkin. Mahalliy olimlarlarda, Sh. Rasulov (2018) O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klasterlari orqali investitsiya samaradorligini oshirish va eksportni diversifikatsiya qilish strategiyalarini tahlil qilgan bo'lsa, N. Karimov (2020) paxta-to'qimachilik tarmog'ida yangi texnologiyalarni joriy etish va ishchi kuchini optimallashtirish imkoniyatlarini o'rgangan hamda O. Tursunov (2022) O'zbekistonning xalqaro bozorga integratsiyasi uchun klasterlar asosida eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini taklif qilgan. Xorijiy olimlar ham ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, bulardan S. Rosenfeld (2015) klasterlarni hududiy iqtisodiy integratsiya va innovatsion rivojlanishda samaradorlikni oshiruvchi mexanizm sifatida baholagan, Nastin (2017) — agroklastar tushunchasi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning klaster yondashuvi orqali amalga oshirilishini tahlil qilgan. F. Gereffi (2018) global to'qimachilik va kiyim-kechak bozoridagi qiymat zanjiri va rivojlangan davlatlar tajribasini o'rgangan hamda J. Humphrey (2021) global tekstil bozoridagi innovatsiyalar va klaster asosida samaradorlikni oshirish tajribasini tahlil qilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro tashkilotlar hisobotlari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar statistik bazalari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy nashrlardan olindi. Olingan axborotlar qiyosiy, tizimli va mantiqiy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, ilg'or xorij tajribalarini O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda to'qimachilik va kiyim-kechak eksporti sust o'sish dinamikasini namoyon etgan. Ishlab chiqarish va investitsiyalar o'sishiga qaramay, so'nggi yillarda tarmoqda shakllangan modelning o'sish sur'atlarida ma'lum sekinlashish kuzatilmoqda.

Bu holat tarmoqda mavjud ishlab chiqarish-xo'jalik munosabatlarini takomillashtirish yoki qayta ko'rib chiqish zaruratini taqozo etmoqda. Bundan tashqari, o'rta muddatli istiqbolda hal etilishi lozim bo'lgan qator rivojlanish masalalari ham kun tartibida qolmoqda:

1. Xavf-xatarlar va asosiy bozorlarga bog'liqlikni kamaytirish maqsadida eksport geografiyasi va nomenklaturasini diversifikatsiya qilish. Bunda asosiy xaridor davlatlarda paxta ip-kalava importining joriy yilda kamayishi yaqqol misol bo'ladi. 2025-yilning yanvar–iyul oylarida Xitoy paxta ip-kalava import hajmini 20 %ga qisqartirib, 2,2 mlrd dollardan 1,7 mlrd dollarga tushirdi, Turkiya esa 52 %ga qisqartirib, 340 mln dollardan 165 mln dollarga yetkazdi. Shu munosabat bilan O'zbekiston mahsulotlari ham ta'sir ko'rsatdi va ushbu mamlakatlarga ip eksport hajmi pasaydi.

Yaqin qo'shni mamlakat bo'lishiga qaramay, mintaqaviy mamlakatlar bozori hali ham yetarlicha o'zlashtirilmagan. 2024-yilda chegaradosh mamlakatlar tomonidan to'qimachilik va kiyim-kechak importi 5,2 mlrd dollarni (shundan kiyim-kechak 2,5 mlrd dollar) tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonning bu mamlakatlarga eksporti 276 mln dollarni yoki ularning import hajmining 5 %ini tashkil etdi.

2017–2024-yillarda to'qimachilik va kiyim-kechak eksporti Yevropa mamlakatlari bozorlariga 2 barobarga oshgan bo'lsa-da, hali yetarlicha yuqori emas — tarmoq eksportining taxminan 5 %ini tashkil etmoqda.

Ushbu yo'nalish doirasida mahalliy mahsulotlarni xalqaro standartlar va maqsadli bozorlar talablariga muvofiq sertifikatlashga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Prezident O'zbekiston tomonidan belgilangan rejalarga ko'ra, bunday sertifikatlariga ega korxonalar soni 300 taga yetkaziladi.

2. Tarmoqni barqaror rivojlantirishning kelgusi bosqichi uchun smes, sintetik va zamonaviy to'qimachilik materiallari ishlab chiqarishni yanada oshirish, turli ko'rinish, dizayn va uslubdagi kiyim-kechakning keng turlarini o'zlashtirish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, O'zbekiston Prezidenti yig'ilishda ta'kidlaganidek, mahalliy sanoat uchun sintetik/kimyoviy xomashyo (tolalar, ip, matolar va boshqalar) yetishmovchiligi mavjud. 2024-yilda bunday mahsulotlar importi 315 mln dollarni tashkil etgan bo'lib, shuning 62 %i Xitoydan keltirilgan.

Korxonalarni qo'shimcha qiymat zanjirini rivojlantirishga undashning ahamiyati katta. Shu nuqtayi nazardan, yaqinda O'zbekiston Prezidenti tomonidan klasterlarga berilayotgan talablarga e'tibor qaratish lozim: klasterlarda tola qayta ishlash quvvatlari mavjud bo'lishi shart. Shu bilan birga, bildirilganidek, "tola qayta ishlash quvvatlariga ega bo'lmagan klasterlar ip ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishi kerak".

3. Potensial kadrlar tanqisligi talabini to'ldirish ham e'tiborni talab qiladi. Sanoat rivojlanib, jahon bozoridagi ishtirokini kengaytirgani sari, muhandislar va texnologlardan tortib marketologlarga bo'lgan turli ixtisosliklarga tobora ko'proq ehtiyoj sezila boshlaydi.

4. Eng muhim masalalardan biri — sanoat samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishdir. Mahalliy to'qimachilik va tikish sanoatida mehnat unumdorligi nisbatan past bo'lib, buni tekstil va kiyim ishlab chiqaradigan yirik davlatlar bilan solishtirganda aniq ko'rish mumkin.

Mamlakat tomonidan korxonalarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, xarajatlarni va mahsulot qiymatini kamaytirishga undash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligi sohasida konsalting xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Shu yo'nalishda korxonalarni infratuzilmani umumiy yaratish va undan foydalanish, resurslarni qayta ishlash, kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalarida hamkorlikka undash, shuningdek, yagona resurs va infratuzilma platformalarini shakllantirishga intilish ham talab etiladi.

Dunyo tajribasi va O'zbekiston amaliyotida qo'llash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Jumladan, Xitoy tajribasining asosiy yondashuvlari quyidagilardan iborat. Masalan, paxta-to'qimachilik sanoatini vertikal



integratsiya asosida rivojlantirish (paxta yetishtirish → ip-gazlama → tayyor kiyim-kechak). Klasterlarga soliq imtiyozlari, eksport subsidiyalari va logistik infratuzilma berilishi. Davlat tomonidan maxsus industrial zonalar tashkil etilgan (masalan, Xinjiang to'qimachilik zonalari). Texnologiyalarni tez yangilash va mehnat unumdorligini oshirish.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar quyidagilardan iborat: klasterlarga innovatsion texnologiyalarni tez joriy etish uchun investitsiya kreditlari va soliq imtiyozlarini kuchaytirish, paxta-to'qimachilik sanoati uchun maxsus industrial zonalar yaratish, tayyor mahsulot eksportiga logistika markazlari orqali ko'mak berish zarur.

Braziliya tajribasining asosiy yondashuvlari sifatida paxta yetishtirishda yirik fermer xo'jaliklari konsolidatsiyasi, xususiy sektor yetakchi bo'lgan holda ilmiy tadqiqot institutlari bilan integratsiya, paxta yetishtirish va qayta ishlashda raqamli agroteknologiyalar (GPS, dronlar, sensorlar), eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: klasterlar amaliyotida yirik xo'jaliklar va ilmiy institutlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, agroteknologiyalarni (dronlar, suv tejovchi GPS texnikalar) subsidiyalash, tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilish lozim.

Turkiya tajribasining asosiy yondashuvlari quyidagilardan iborat: Yevropa bozoriga yo'naltirilgan yuqori qo'shilgan qiymatli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, brend yaratish, dizayn markazlari va marketingga katta e'tibor qaratish, kadrlar tayyorlash uchun kuchli kasb-hunar maktablari tarmog'ini rivojlantirish, xususiy sektor yetakchi bo'lgan klasterlashgan sanoat zonalarini tashkil etish.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: O'zbekiston klasterlarida brend yaratish, "Made in Uzbekistan" konsepsiyasini rivojlantirish, dizayn, fashion va tikuvchilik bo'yicha kollejar va markazlar ochish, Turkiya bilan qo'shma korxonalar sonini oshirish (tayyor kiyim eksporti uchun) lozim.

AQSh tajribasining asosiy yondashuvlari: paxtachilikda ilm-fan asoslangan yuqori samarali genetika va seleksiya, sug'orishda tomchilatib va tejamkor texnologiyalar, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash korxonalarida raqamli boshqaruv, katta hajmdagi xususiy kapital ishtirokini kengaytirish.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: paxta seleksiyasini kuchaytirish, yuqori hosilli navlar yaratish, klasterlarda suv tejovchi texnologiyalarni majburiy joriy etish, investorlarga qulay sharoitlarni (yer ijarasi, infratuzilma, kreditlar) kengaytirish.

Pokiston tajribasining asosiy yondashuvlari: paxta yetishtirish iqtisodiyotning bazaviy tarmog'i hisoblanadi, tikuvchilik va to'qimachilik eksportida imtiyozli, past soliq stavkalari qo'llaniladi, kichik va o'rta biznes rag'batlantiriladi, xalqaro bozorga mos, arzon va ko'p miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: kichik tikuvchilik korxonalariga klasterlar ichida kichik rezident maqomi berish, soliq stavkalarini eksportchi klasterlar uchun yanada soddalashtirish zarur.

Hindiston tajribasining asosiy yondashuvlari: to'qimachilik sanoatini mintaqaviy klasterlar asosida rivojlantirish, IT bilan integratsiya — raqamli dizayn va avtomatlashtirilgan tikuvchilik, past tannarxli, lekin sifatli ishchi kuchi, eksport kreditlari va davlat kafolatlarini taqdim etish.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: hududlar bo'yicha maxsus to'qimachilik klaster hududlarini tashkil etish, raqamli to'qimachilik texnologiyalarini subsidiyalash, eksportni qo'llab-quvvatlashda Hindiston modeli asosida kredit va sug'urta kafolatlarini joriy qilish lozim.

Misir tajribasining asosiy yondashuvlari: uzoq tolali "Egyptian Cotton" brendi orqali jahon bozorida yuqori narxli premium segmentni egallash, davlat tomonidan paxta navlarini patentlash va brend himoyasini kuchaytirish, to'qimachilik zonalari uchun maxsus iqtisodiy hududlar (QIZ) tashkil etish, xorijiy investorlarga soliq imtiyozlari, eksport subsidiyalari va erkin valyuta rejimini taqdim etish, sanoatda xalqaro brendlar bilan kooperatsiyani rivojlantirish.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: O'zbekistonning "Uzbek Cotton Premium", "UzTextile" kabi brendlarni yaratish va sertifikatlash, maxsus iqtisodiy hududlarda to'qimachilik klasterlari uchun alohida imtiyozlar joriy etish, uzun tolali paxta yetishtirishni kengaytirish (premium segment eksporti uchun), xalqaro yirik brendlarni O'zbekistonga to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritishga jalb qilish zarur.

Eron tajribasining asosiy yondashuvlari: to'qimachilik sanoatida import o'rnini bosish siyosati, klasterlarda mahalliy xomashyo va mahalliy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi va sanoatda davlat tomonidan arzon energiya hamda arzon kredit siyosatini yuritish. Raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilmog'da. Ichki bozorga yo'naltirilgan yirik tekstil kombinati — Isfahon Textile Complex klasterlashuv modeli mavjud.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: arzon energiya tariflari yoki sanoat uchun alohida tariflarni joriy qilish, klasterlarda texnologiyalarni mahalliyashtirish dasturini kuchaytirish, ichki bozor ulushini oshirish uchun mahalliy to'qimachilikni qo'llab-quvvatlovchi qonunchilikni takomillashtirish, qayta ishlash va ip yigiruvda energiya tejamkor texnologiyalarni subsidiyalash lozim.

Bangladesh tajribasining asosiy yondashuvlari: Bangladesh dunyoda tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksporti bo'yicha 2-o'rinda turadi. Klasterlashuv asosida RMG — Ready Made Garments zonalari tashkil



etilgan. Soliq imtiyozlari, eksportchi korxonalar uchun “tax holiday” siyosati qo'llaniladi. Kadrlar tayyorlash tizimi keng rivojlangan, tikuvchilik markazlari faoliyat yuritadi. Mamlakat xalqaro brendlar uchun to'qimachilik ishlab chiqarishning offshor hududiga aylangan. Arzon ishchi kuchi va keng ko'lamli eksport infratuzilmasi mavjud.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishni keskin kengaytirish, xom ip eksportini kamaytirish, maxsus eksport zonalarini tashkil etish, tikuvchilik bo'yicha qisqa muddatli o'quv markazlarini yaratish, xalqaro brendlar uchun “ready production base” sifatida pozitsiya egallash, eksportga yo'naltirilgan klasterlarga “tax holiday” mexanizmlarini joriy qilish zarur.


Qozog'iston tajribasining asosiy yondashuvlari: paxta yetishtirish miqdori kam bo'lsa-da, to'qimachilik klasteri — YUTI (Yuzniqor Tog'ay) modeli tajribasi mavjud. Klasterning asosiy vazifasi chuqur qayta ishlash va vertikal integratsiyani ta'minlashdan iborat. Davlat tomonidan infratuzilma qo'llovi, grantlar va subsidiyalar beriladi. “Qozog'istonning yengil sanoati” dasturi orqali ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatiladi. Xitoy va Turkiya investitsiyalari faol jalb etilmoqda.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, elektr energiyasi, suv va logistika jarayonlarini soddalashtirish, klasterlarda vertikal integratsiyani chuqurlashtirish talablari, to'qimachilik loyihalariga xorijiy investorlar uchun kafolat jamg'armalarini yaratish, Turkiya va Xitoy investorlarini jalb qilish bo'yicha maxsus investitsiya dasturlarini joriy etish lozim.

Indoneziya tajribasining asosiy yondashuvlari: to'qimachilik sanoati YAIMning muhim qismi bo'lib, davlat eksportga yo'naltirilgan siyosatni olib boradi. Xalqaro sertifikatlar (OEKO-TEX, ISO) joriy etilgan va sifat standartlari qat'iy nazorat qilinadi. Texnologiyalarni modernizatsiya qilish uchun subsidiyalangan kreditlar ajratiladi. “Industrial Park”lar orqali yirik to'qimachilik klasterlari yaratilgan. Mehnat ko'nikmalarini oshirish bo'yicha davlat va xususiy sektor hamkorligi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston uchun imkoniyatlar: xalqaro standart va sertifikatlarni majburiy tatbiq etish, klasterlarning texnologik yangilanishi uchun foizsiz yoki qulay foizli kreditlar ajratish, to'qimachilik sanoati klasterlari uchun industrial parklar tashkil etish, mehnat ko'nikmalarini oshirish uchun trening markazlarini yo'lga qo'yish zarur.

Jahon Savdo Tashkilotining (JST) so'nggi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Xitoyning jahon kiyim-kechak eksportidagi bozor ulushi 2024-yilda 29,6 foizgacha kamaygan bo'lsa-da, bu 2010-yildan beri eng past ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, Xitoyning to'qimachilik eksportidagi bozor ulushi 2024-yilda 43,3 foizga yetib, o'tgan yilgi 41,5 foizdan oshgan. Boshqacha qilib aytganda, rivojlanish nazariyasining bosqichlariga mos ravishda, Xitoyning boshqa kiyim-kechak eksport qiluvchi mamlakatlar uchun asosiy to'qimachilik yetkazib beruvchisi sifatidagi roli tayyor kiyim eksportining pasayishiga qaramay, o'sishda davom etmoqda (1-rasm).




1-rasm. Dunyo to'qimachilik va kiyim-kechak eksportida Xitoyning bozor ulushi, foizda¹

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan. <https://shenglufashion.com/category/statistics/>

2010–2024-yillardagi statistik ma'lumotlar Xitoyning dunyo to'qimachilik va kiyim-kechak eksportidagi bozor ulushi yuqori darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. To'qimachilik mahsulotlari bo'yicha Xitoyning ulushi 2010-yildagi 30,1 %dan boshlab yildan yilga o'sib, 2019-yilda 42,1 foizni, pandemiya davrida esa 2020-yilda 46,9 foizni tashkil etgan. Keyingi yillarda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2023–2024-yillarda yana 43 foiz atrofida barqarorlashgan. Bu Xitoyning global xom to'qima va ip-gazlama bozorida hanuz yetakchilik mavqeini saqlab qolayotganidan dalolat beradi.

Kiyim-kechak eksportida esa boshqacha dinamik kuzatiladi: Xitoyning ulushi 2010–2016-yillarda 36–38 foiz oralig'ida bo'lgan bo'lsa, 2017-yildan boshlab asta-sekin pasaya boshlagan. 2019-yilda 30,1 foiz, 2024-yilda esa 29,6 foizga tushgan. Bu pasayishning asosiy sabablari Bangladesh, Vetnam, Hindiston va boshqa davlatlarda arzon ishchi kuchi hisobiga raqobatning kuchayishi hamda global brendlarning ishlab chiqarishni boshqa mintaqalarga ko'chirish jarayonlari bilan izohlanadi. Shunga qaramay, Xitoy hali ham kiyim-kechak eksportida dunyodagi eng yirik yetkazib beruvchilardan biri bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, ma'lumotlar Xitoyning to'qimachilikda barqaror yetakchi, kiyim-kechakda esa raqobat bosimi ortgan bo'lsa-da, hanuz dunyo bozorida eng yirik o'yinchi ekanini ko'rsatadi.

Qo'shma Shtatlar Meksika va Kanadadan to'qimachilik hamda tikuvchilik mahsulotlari eksportining qo'shilgan qiymatiga muhim hissa qo'shayotgan bo'lsa-da, uning ulushi 2015–2022-yillar orasida biroz kamaydi, ya'ni taxminan 12–14 foizdan 11 foizgacha tushdi. AQSh to'qimachilik va tikuvchilik sanoatining iqtisodiy manfaatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ushbu Shimoliy Amerika qo'shma ishlab chiqarish ta'minot zanjirini zaiflashtirish emas, balki kuchaytirish juda muhimdir. Bu, ayniqsa, AQSh va Osiyo yoki Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasida to'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish bo'yicha ta'minot zanjiri hamkorligi cheklangan bo'lib, o'sish ko'rsatkichlari past bo'lganini inobatga olganda muhim ahamiyat kasb etadi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari to'qimachilik va kiyim-kechak eksportida AQShning qo'shilgan qiymati bor-yo'g'i 1,5 foiz atrofida qolgan (2-rasm).



2-rasm. 2010-2024-yillarda davlatlarning yalpi eksportidagi qo'shilgan qiymat ulushi – to'qimachilik, kiyim-kechak, charm va unga oid mahsulotlar, foizda²

2010–2024-yillar davomida turli mintaqa davlatlarining to'qimachilik, kiyim-kechak, charm va unga oid mahsulotlar bo'yicha yalpi eksportdagi qo'shilgan qiymat ulushi barqaror, ammo sekin o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Eng yuqori ko'rsatkich Kanada hissasiga to'g'ri kelib, uning ulushi 11–12 foiz atrofida barqaror saqlangan. Bu mamlakatning yuqori texnologiyali qayta ishlash sanoati va eksportdagi sifat standartlari yuqoriligini ko'rsatadi. Meksikada esa 2021-yildagi keskin pasayish (2,7 foiz) kuzatilgan bo'lib, bu global pandemiya va logistika uzilishlari natijasida yuzaga kelgan. Ammo 2022–2024-yillarda asta-sekin tiklanish mavjud.

2 Muallif tomonidan tayyorlangan. <https://shenglufashion.com/category/statistics/>



XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi yillarda to'qimachilik va kiyim-kechak eksportida kuzatilayotgan sust o'sish tendensiyasi rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatida mavjud model va strategiyalarni qayta ko'rib chiqish zaruratini taqozo etmoqda. Ishlab chiqarish va investitsiyalardagi o'sish mavjud bo'lsa-da, tarmoqning o'sish sur'atlarida sekinlashish aniq ko'zga tashlanmoqda. Bu esa ishlab chiqarish-xo'jalik munosabatlarini modernizatsiya qilish, strategik diversifikatsiya va global bozor talablariga moslashuvni talab qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, eksport geografiyasini va nomenklaturasini diversifikatsiya qilish eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biridir. Xitoy va Turkiya bozorlarida paxta ip-kalava importining sezilarli darajada qisqarishi O'zbekiston mahsulotlariga ham ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, mintaqaviy qo'shni davlatlar bozorlarida eksportning pastligi mavjud salohiyatning yetarlicha ishga solinmaganini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan mahalliy ishlab chiqarish sifatini xalqaro standartlar va sertifikatlashtirish talablariga moslashtirish, shuningdek, eksportni diversifikatsiya qilish orqali xavf-xatarlarni kamaytirish strategik ahamiyatga ega. Prezident tomonidan belgilangan rejalar doirasida sertifikatlangan korxonalar sonini 300 taga yetkazish maqsadi bu boradagi muhim qadam sifatida e'tiborga molikdir.

Tarmoqni barqaror rivojlantirishning navbatdagi bosqichi sifatida smes, sintetik va zamonaviy to'qimachilik materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish, turli ko'rinish va dizayndagi kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, sintetik/kimyoviy xomashyo importining katta qismi (62 %) Xitoydan amalga oshirilgan bo'lib, bu mahalliy sanoatning xomashyo mustaqilligi va qo'shimcha qiymat zanjirini rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Shu sababli klasterlarda tola qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirish yoki ip ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish va yetarli mutaxassislarni tayyorlash ham dolzarb vazifa bo'lib, sanoat rivojlanishi bilan birga muhandislar, texnologlar, marketologlar va boshqa ixtisosliklarga bo'lgan talab ortadi. Shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash tarmoq barqarorligining muhim omili hisoblanadi. Mahalliy tekstil va tikuvchilik sohasidagi mehnat unumdorligi nisbatan past bo'lgani tufayli, konsalting xizmatlari va ishlab chiqarish jarayonlarini optimizatsiya qiluvchi mexanizmlarni joriy etish orqali korxonalar samaradorligini oshirish lozim. Bu esa resurslarni qayta ishlash, infratuzilmani umumiy yaratish va malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Xalqaro tajribalar tahlili (Xitoy, Braziliya, Turkiya, AQSh, Pokiston, Hindiston, Misr, Bangladesh, Qozog'iston va Indoneziya) shuni ko'rsatadiki, ilg'or klaster yondashuvlari O'zbekiston amaliyotiga moslashtirilishi mumkin. Xususan, vertikal integratsiya, eksportni diversifikatsiya qilish, maxsus industrial zonalar yaratish, texnologik yangilanish va innovatsion kredit-subsidiya mexanizmlari orqali to'qimachilik sanoatining global bozor raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Xorijiy tajriba, shuningdek, brend yaratish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va samarali kadrlar tayyorlash sohalarida O'zbekiston klasterlari uchun muhim yo'nalishlarni belgilaydi.

Statistik ma'lumotlar (JST, OECD) tahlili Xitoyning global to'qimachilik bozorida barqaror yetakchilik qilayotganini, kiyim-kechak eksportida esa raqobat bosimi ortgan bo'lsa-da, O'zbekiston uchun diversifikatsiya va innovatsiyalarni kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, Qo'shma Shtatlar, Kanada va Meksika misollarida qo'shilgan qiymatli eksport zanjirini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari orqali investitsiyalarni jalb qilish, texnologik modernizatsiyani amalga oshirish va kadrlar salohiyatini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning o'sishiga, eksport salohiyatini kengaytirishga va ish o'rinlarini yaratishga sezilarli hissa qo'sha oladi. Shu bilan birga, eksportni diversifikatsiya qilish, zamonaviy va sintetik materiallar ishlab chiqarish, brend yaratish, xalqaro sertifikatlar va standartlarga moslashish orqali tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu strategik choralar O'zbekiston paxta-to'qimachilik sanoatini global raqobatbardosh va barqaror rivojlanayotgan tizimga aylantirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Rosenfeld S. Clusters and Competitiveness (2015). Harvard University Press.
2. Natin, A. Agroclusters and Regional Development (2017). Springer.
3. Gereffi, F. Global Value Chains in Textiles (2018). Cambridge University Press.
4. Kaplinsky, R. Textile Clusters in Developing Economies (2019). Routledge.
5. Humphrey, J. Industrial Upgrading in Textile Clusters (2021). Palgrave Macmillan.
6. Rasulov, Sh. Paxta-to'qimachilik klasterlari va investitsiya samaradorligi (2018). Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
7. Karimov, N. Texnologik modernizatsiya va ishchi kuchi optimallashtirish (2020). Toshkent.
8. Tursunov, O. O'zbekistonning eksport salohiyatini rivojlantirish (2022). Toshkent.
9. World Trade Organization (2024). World Textile and Apparel Trade Statistics.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100